

KICHIK BIZNES SUBEKTLARIDA BERILAYOTGAN SOLIQ IMTIYOZLARINING AHAMIYATI

Orziqulov Ilyos Ixtiyor o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 19.08.2025

Revised: 20.08.2025

Accepted: 21.08.2025

KALIT SO'ZLAR:

*kichik biznes, soliq,
soliq imtiyozlari, soliq
siyosati, soliq
majburiyati, soliq
kanikullari.*

Maqolada zamonaviy bozor iqtisodiyotining aralash shaklda tashkil topganligi, unda kichik va yirik biznesning uyg'un faoliyati makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni yoritilgan. Kichik biznesning moslanuvchanligi, innovatsiyaga ochiqqligi va iqtisodiy islohotlar kontekstida ahamiyati alohida ta'kidlanadi. O'zbekiston misolida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar – xususan, xususiy mulk huquqini himoyalash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, soliqqa tortish tizimining soddalashtirilishi va soliq yukining kamaytirilishi – kichik tadbirkorlik rivojiga kuchli turtki bergani aytiladi. Jumladan, yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 25% dan 12% ga tushirilgan, ayrim boj va aksiz to'lovlari bekor qilingan, litsenziya va ruxsatnomalar soni qisqartirilgan, yer ajratishning ochiqqligi ta'minlangan.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti turli iqtisodiy tizimlarga xos element komponentlaridan tashkil topgan "aralash iqtisodiyot" hisoblanadi. Unga xos bo'lgan yana bir jihat biznes yuritishda "kichik biznes" va «yirik biznes» kombinatsiyasidan tashkil topgan xo'jalik mexanizmiga asoslanganligi va jahon tajribasida ularning o'zaro manfaatli faoliyati makroiqtisodiy barqarorlikning muhim shartlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Kichik biznes iqtisodiy taraqqiyot jarayoniga xos o'zgarishlarga moslanuvchanligi bilan

yirik biznesga nisbatan afzalliklarga ega bo'lib, o'ziga xos ravishda biznesdagi iqtisodiy konservatizmni yengib o'tuvchi bozoriqtisodiyotining dinamik elementidir. Shuning uchun ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Hozirda mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari faoliyatiga beriladigan ahamiyat olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning asosini tashkil etmoqda.

O'zbekiston taraqqiyotining o'rta muddatli rivojlanish bosqichida iqtisodiyotni yanada isloh qilish va liberallashtirish yo'nalishidagi islohotlarning muhim vazifasi etib, "xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklolarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, «Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy bo'ladi» (<https://sof.uz/post/Shavkat-Mirziyoyev-xalqimiz-barcha-yutuqlarimiz-ijodkori-va-yaratuvchisidir>.) degan tamoyilni amalga oshirish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish" (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sonli Farmoni.) belgilab berildi.

Bizga ma'lumki, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim fiskal instrumentlaridan biri soliqlar hisoblanadi. Soliqlar bir tomondan davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etsa, ikkinchi tomondan soliq to'lovchilarning faoliyatini yanada rag'batlantirish, ularning iste'mol va jamg'arish ko'rsatkichlarini tartibga solishning muhim instrumentlaridan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda soliq tizimidagi islohotlarda kichik tadbirkorlik subektlari uchun qulay moliyaviy muhitni shakllantirish maqsadida ular zimmasidagi soliq yukini pasaytirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish va soliqlarni unifikatsiya qilish bilan bog'liq keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar kontekstida O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish konfiguratsiyasini o'zgarishida innovatsion omillarining roli kuchayib bormoqda. Ushbu jarayon kichik biznes taraqqiyotining innovatsion yo'nalishida hamkuzatilib, ushbu tendensiya ularni soliqqa tortish mexanizmini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan jarayonlarini chuqurlashtirishni talab qilmoqda.

O'tgan qisqa vaqt mobaynida mazkur belgilangan vazifalarni muntazam va izchillik

bilan bajarish natijasida “biznes hamjamiyati uchun eng og‘ir hisoblangan yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi ilgari 25 foiz o‘rniga 12 foiz etib belgilandi. Byudjetdan tashqari pensiya, yo‘l va ta‘lim bo‘yicha maqsadli jamg‘armalarga 3,2 foiz miqdoridagi majburiy to‘lov bekor qilindi. Bojxona to‘lov stavkalari qayta ko‘rib chiqilib, 3,5 mingga yaqin tovarlar bo‘yicha boj miqdori va 800 ga yaqin tovarlar bo‘yicha aksiz solig‘i stavkalari kamaytirildi. Mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydigan mahsulotlar uchun xom ashyolarga, shuningdek, asbob-uskuna va texnikalarga nisbatan davlat boji olinmaydigan bo‘ldi. Tadbirkorlik subektlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini rejali tekshirish bekor qilindi. 138 ta litsenziya va ruxsat berish bilan bog‘liq talablar soddalashtirildi, ularning 42 tasi butunlay tugatildi. Tadbirkorlik faoliyati uchun yer maydonlarini ajratishdagi to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etish, tizimdagikorupsiya holatlariga barham berish maqsadida yer maydonlarini elektron auksion orqali ajratish tartibi joriy etildi. Mulk egasiga zararning o‘rni to‘liq qoplanmaguncha davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo‘yish va ko‘chmas mulkni buzish tartibi bekor qilindi. Investor va tadbirkorlarga yetkazilgan mulkiy zararni to‘liq qoplab berish tartibi kafolatlandi. Shu bilan birga, kelgusi yildan boshlab tadbirkorlarimizni mahsulotlar, ish va xizmatlarni eksport qilishda foyda solig‘i va yagona soliq to‘lovidan ozod etish nazarda tutilmoqda” (Mirziyoyev, Shavkat. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 64 b.).

Umuman olganda, dunyo mamlakatlarida mulkchilikning turli shakllariga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish jarayonining turli xil shakl va usullarda amalga oshiriladi. Ularning ichida tadbirkorlik faoliyati alohida o‘rin tutadi. Rivojlangan bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish resurslari qatoriga ishchi kuchi, texnika-texnologiya va tabiiy omil bilan bir qatorda, tadbirkorlik qobiliyati ham kiritiladi. Shu bois, tadbirkorlik faoliyati bozor xo‘jaligining ajralmas qismi hisoblanadi.

Tadbirkorlik tushunchasining paydo bo‘lishi, davlat bilan o‘zaro munosabatlari masalasi, ular faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi, faoliyati natijasida oladigan foydasini soliqqa tortish masalalari soha taraqqiyoti uchun fiskal instrumentlari vositasida qulay shart-sharoit yaratishga oid qarorlar qabul qilishda dolzarb ahamiyatga egadir. Shuningdek, “tadbirkorlik” va “biznes” tushunchalarini ham farqlanishlari yuzasidan yondashuvlarimizni bildirib o‘tdik.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ahamiyati haqida gapirishdan oldin “biznes” va “tadbirkorlik” tushunchalariga to‘xtalish maqsadga muvofiq.

Iqtisodiyot fanida tadbirkorlik faoliyatiga doir dastlabki tadqiqotlar XVIII asrda R.

Kantilyon, A. Tyurgo, F. Kene, A. Smit va J.B. Sey asarlarida amalga oshirila boshlandi. “Biznes” - so‘zi inglizcha so‘z bo‘lib, u tadbirkorlik faoliyati yoki boshqacha so‘z bilan aytganda kishilarni foyda olishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatidir (O‘lmasov A, Sharifxo‘jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik.-T.: «Mehnat», 1999 y.).

Biznesmen (tadbirkor) so‘zi birinchi marotaba Angliya iqtisodiyotida XVIII asrda paydo bo‘lib, u “Mulk egasi” degan ma‘noni bildiradi. Jumladan, Adam Smit tadbirkorni mulk egasi sifatida ta’riflab, uni foyda olish uchun qandaydir tijorat g‘oyasini amalga oshirish maqsadida iqtisodiy tavakkalchilikka boradigan kishidir, (Smit A. Issledovaniya o prirode i prichinax bogatstva narodov. Per.s angl. M.: 1962 g.-408s. https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Econom/smit/05.php.) - deb ta’kidlaydi. Tadbirkorni o‘z ishini o‘zi rejalashtiradi, ishlab chiqarishni tashkil etadi, mahsulotni sotadi va olgan daromadini o‘zi mustaqil tasarruf etadi. Biznes - bu avvalo ishlab chiqarishni tashkil etish, iqtisodiy faoliyat va munosabatlar, hayotni o‘zi so‘ngra esa pul ishlash demakdir. Shunday qilib, biznes - bu korxona tashkil qilish demakdir (sanoat korxonasi, savdo do‘koni, xizmat ko‘rsatish korxonasi, auditorlik tashkiloti, advokatlik idorasi, tijorat banklari va boshqalar). Demak, biz yo‘q narsadan pul ishlab topish emas, balki murakkab ishlab chiqarishni yoki xizmat ko‘rsatishni tashkil etish demakdir.

Umuman olganda, A.Smit tadbirkorlikni foyda olish uchun qandaydir tijorat g‘oyasini amalga oshirish maqsadini ko‘zlab tavakkalchilik bilan ish ko‘ruvchi mulkdor deb tavsiflaydi. Uning o‘zi ishlab chiqarishni tashkil qiladi, rejalashtiradi, iste’molchilarga yetkazib beradi va uning natijalariga egalik qiladi (Smit A. Issledovaniya o prirode i prichinax bogatstva narodov. Per.s angl. M.: 1962 g.-408s. https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Econom/smit/05.php.).

Keyinchalik real xo‘jalik hayotida qatnashuvchi kapitalning mulkdor kapitalidan ajralib chiqishi natijasida «tadbirkorlik» tushunchasi «mulkdor» tushunchasiga to‘g‘ri kelmay qoldi.

J.B.Sey tadbirkorlikni ancha keng va batafsil ta’riflaydi. Uning fikricha, tadbirkor eng ko‘p daromad olish maqsadida ishlab chiqarish omillarini bir-biriga uyg‘unlashtirish ishlari bilan shug‘ullanuvchi iqtisodiy agent deya e’tirof etadi (Sey J.-B. Traktat po politicheskoy ekonomii. M., 1996. [Elektronniy resurs] // URL: <http://geum.ru/next/art-317992.php>).

Avstriya maktabi namoyondalari I.Shumpeter va F.Xayek ilmiy ishlanishlarida tadbirkor xo‘jalik yurituvchining o‘ziga xos ijtimoiy psixologik tipi shaklida talqin qilinadi (Shumpeter Y. A. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. M.: Progress, 1982. [Elektronniy resurs] // URL: <http://socioline.ru/book/j-shumpeter-teoriyaekonomicheskogo->

razvitiya#attachments.). Ular uchun asosiysi turli- tuman bozor imkoniyatlarini tahlil qilish va foydalanish, novatorlik g'oyalarini amalga oshirish hisoblanadi. Ular tadbirkorlikni faoliyat turi emas, balki tabiatan aql tuzilishi va xossasi deb hisoblaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomicheskix resheniy. /usheb. / O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /usheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.
3. Brealey R.A., Mers S.S. Principles of corporate finance. McGraw-Hill, 2003.
4. Kumri Nomozova. Organizational and economic modeling of the system of interregional industrial cooperation as a control object. Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
5. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region. International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.
6. Kumri Nomozova. Evolyutsiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsya ushenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogicheskie tekhnologii. 2025. – s. 581-587.
7. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq risklarni sug'urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.
8. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomicheskoe razvitiye i analiz, 2024. - s. 338-345.
9. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug'urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.
10. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.
11. Qumri Nomozova. O'zbekistonda tadbirkorlik tavakkalshiliklari sug'urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.
12. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: "Iqtisod- moliya", 2013. – 128 b.

13. Vahobov A.V., Malikov T.S. MoliY. Darslik. – T.: “Sharq”, 2010. – 804 b.
14. Van Xorn D.K. Osnovi upravljeniya finansami/ D.K.Van Xorn; Per.s angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finansi i statistika, 1996. - 800 s: il.
15. Publis Finanse: A Sontemporary Applisition of Theory to Polisy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Sengage Learning
16. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati. – T.: “Akademnashr”, 2011. – 472 b.

